

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 554 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yo'llari.....	11
Mirjamilova Hulkar Nurali qizi , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....	15
Alimov Murodkosim Achilovich , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot" da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili.....	20
Umarov Faxriddin Umar o'g'li , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati.....	26
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi.....	31
Abduvakil Alimov Komil o'g'li , tayanch doktorant	
Ta'lim turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
Maxmudova Nodira O'ktamovna , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari.....	43
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari.....	46
Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari.....	57
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	62
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
Султанходжаев Бахтиёр Забихуллович	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi.....	73
Usmonov Botir , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish.....	78
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds.....	87
Sharbat Abdullaeva , Professor; Sardor Abdullaev , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies.....	92
Shakhzod Saydullaev , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi.....	101
Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich , i. f. d. (DSc); Eshqulova Nasiba Normo'minovna , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lim kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
Eldor Uskanov , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish.....	114
Maxmudov Nosir Maxmudovich , professor; Elmurodov Faxriddin Farxodovich , magistratura tinglovchisi	
Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari.....	120
Ergashev Otamurod Toshmurovich , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar.....	125
Ermatov Musojalil Komilovich , kafedra dotsenti v. b.; Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich , katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach.....	132
Abduraxmanov Zafar Batirovich ; Ikromov Sayidolim Ismoilovich	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
Akobirova Nodira Najmiddin qizi , asisstant	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
Alimova Guzal Alisherovna , PhD in economics, docent	



Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari	146
Jo'rayeva Sevara Zakirovna , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	152
Kamilova Iroda Xusniddinova , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability	156
Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari	163
Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri	170
Nabiyev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept	175
Otakulov Makhamadjon , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlantirish imkoniyatlari	181
Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida	185
Sadikova Ra'no Abdullayevna , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish	188
Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni	191
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari	196
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li , dekan o'rinbosari	
Kichik sanoat zonalarini faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari	203
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich , dotsent; Adilbekov Allayar Anvarbekovich , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni	206
Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях	212
Алиева Надирахон Абдумаликовна , PhD. доц.; Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish	217
Z. G. Allaberganov , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish	222
Asatullayev Xurshid Sunatullayevich , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari	228
Axmedova Yulduz Sunatullayevna , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari	232
Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna , kafedra dotsenti	
Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish	236
Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashirish ko'rsatkichlari	242
Berdiyev Akram O'ktamovich , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi	253
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari	258
Botirov Erkinjon Xayitovich , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish	263
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	269
Jubanova Bayramgul Aymuratovna , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari	272
Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish	278
Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari	284
Qurbanova Shaxrinoz , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar	288
Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari	292
Mamirjon Jaloliddinov , mustaqil izlanuvchi	



Финансирование акционерных общества через рынок капитала	297
Муминов Шохжахон Суюнович , ассистент кафедры	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана	302
Муятдинов Махмуд Жалелович , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны	307
Назарова Гузал Баходировна	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari	312
Nozima Abdullayeva , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili	316
Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках	326
Тажимуратов Умид Рузमतovich , Бахриев Иброхим Исометдинович , кандидат медицинских наук, доцент; Жуманиёзов Эркин Худойбергенович , кандидат медицинских наук, доцент; Тажимуратов Рузमत Отажанович , кандидат медицинских наук, Тажимуратов Абдусами Умид угли , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili	333
Temirov Abdulaziz Alimjanovich , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан	339
Топилдиев Сохибжон Рахимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	345
Tosheva Ziroat Aliqul qizi	
Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlarini	349
To'rayeva Nafisa Odilovna , mustaqil izlanuvchi	
О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития	355
Турсун Мухитович Ахмедов , и. ф. д., проф.; Гавхар Рустамовна Хидирова , докторант, и. ф. ф. д., доц.	
Влияние корпоративного управления в зеленой экономике	359
Уринов Бобур Насиллоевич , заведующий кафедрой	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari	366
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari	374
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari	382
Xayriddinov Sh. B. , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari	385
Xolov Nabijon Qaxramonovich , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari	391
Xusanov Otabek Nishonovich , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadlilikini oshirish yo'llari	396
Elbusinova Umida Xamidullayevna , kafedra dotsenti	
Особенности методики проведения аудита затрат на производство	401
Хилола Икрамова Ровшан кизи , базовый докторант	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni	407
Bekdavlat Aliyev	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	412
O'ktamova Nozima Narzulla qizi , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari	416
Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik	420
Abrorxon Asatulloev Asatulloevich , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari	424
Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития	431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari	440
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari	446
Bobirjon Aktamov , mustaqil tadqiqotchi	



Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	
Daromadlarni qayta taqsimlashda "tashabbusli byudjet" tizimini qo'llashning zamonaviy modellari va ulardan samarali foydalanish yo'llari.....	464
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich , dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth in Uzbekistan.....	472
Tulkin Imomqulov , PhD Associate Professor	
O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari.....	478
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining statistik tahlili.....	483
Saodat Toshaliyeva Toxirovna , PhD	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....	490
Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Tijorat banklari kreditlari hajimining barqaror o'sishini ta'minlash.....	497
J. Y. Isakov , i.f.d., prof.	
The Securities Transactions of Commercial Banks.....	502
Iskandar Sulaymonov , assistant teacher	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasining rivojlanishi va istiqboli.....	507
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi: nazariya, rivojlanish, taklif.....	511
Isroilov Bohodir Ibragimovich , i. f. d., professor; Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , PhD	
Yangi O'zbekiston jamiyat hayotining joni va ruhi ma'naviyatidir.....	516
Davletova Muxabbat Narimanovna , mustaqil izlanuvchi	
Moddiy-texnik resurslar salohiyatidan foydalanish samaradorligi.....	519
Halimova Dilara Olimboyevna , mustaqil izlanuvchi	
Хлопково-текстильная промышленность государства.....	523
Халиков Талибжон Луптуллаевич , ассистент кафедры	
Directions of Sustainable Development of Tourism: A Case of top Developed Countries.....	527
Khusniddin Egamnazarov	
Yevropa Ittifoqining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.....	534
Abduraxmonov Farxod Abdufarmonovich , siyosiy fanlar doktori (DSc.)	
Korxona strategiyasini amalga oshirishda inson resurslari boshqaruvining o'rni va ahamiyati ("O'zbekneftgaz" AJ kompaniyasi misolida).....	548
Xasanova Nafisa Shavkatovna	



KORXONA STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA INSON RESURSLARI BOSHQARUVINING O'RNI VA AHAMIYATI ("O'ZBEKNEFTGAZ" AJ KOMPANIYASI MISOLIDA)

Xasanova Nafisa Shavkatovna

O'zbekiston milliy universiteti tayanch doktranti

Annotatsiya: Maqolada "O'zbekneftgaz" AJ kompaniyasining inson resurslarini boshqarish jarayonlari tahlil qilingan va nazariyalar asosida ko'rib chiqilgan. Neft va gaz sanoati eng yirik kompaniyasining korporativ boshqaruvi ko'rib chiqilgan. "O'zbekneftgaz" AJ kadrlar siyosati tahlil qilingan

Kalit so'zlar: inson resurslari, inson resurslarini boshqarish, korporativ boshqaruv, "O'zbekneftgaz" AJ, neft va gaz sanoati, kompaniya, strategiya, kadrlar siyosati, korporativ strategiya, motivasiya

Abstract: The article analyzes and examines the processes of human resource management of JSC Uzbekneftegaz based on theories. The corporate management of the largest company in the oil and gas industry is considered. The personnel policy of JSC Uzbekneftegaz is analyzed

Key words: human resources, human resource management, corporate management, JSC Uzbekneftegaz, oil and gas industry, company, strategy, personnel policy, corporate strategy, motivation

Аннотация: В статье на основе теорий анализируются и рассматриваются процессы управления человеческими ресурсами АО "Узбекнефтегаз". Рассмотрено корпоративное управление крупнейшей компании нефтегазовой отрасли. Проанализирована кадровая политика АО "Узбекнефтегаз"

Ключевые слова: человеческие ресурсы, управление человеческими ресурсами, корпоративное управление, АО "Узбекнефтегаз", нефтегазовая отрасль, компания, стратегия, кадровая политика, корпоративная стратегия, мотивация.

KIRISH

Hozirgi o'zgaruvchan va murakkab kon'yunkturali bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkilot har qanday vaziyatlarga tayyor turishi va hamma resurslaridan oqilona foydalanishi eng dolzarb masalaga aylandi. Texnologiya va investisiya tashkilotga barqarorlikni ta'minlab bergan bo'lsa, hozirda esa bu etarli emasligi amalda isbotini topdi. Tashkilotning barqaror rivojlanishida asosiy 3 ta omil mavjud:

1. Inson resurslari;
2. Investisiya;
3. Texnologiya.

Yuqorida keltirib o'tilgan faktorlarning eng birinchisida inson resurslari turishining yagona sababi bu "inson ongi"dir. Inson ongi borliqdagi eng kuchli quroldir. Aynan shu ong yuqoridagi qolgan 2 ta omilni yaratadi. Tashkilotning moddiy aktivlariga ko'pgina narsalar kirib ketishi va nomoddiy aktivlariga esa inson resurslarini kiritishimiz mumkin. Tashkilot inson resurslari orqali uzoq muddat rivojlanishi hamda bozorda o'z o'rnini yo'qotmaslikni ta'minlab beradi. Shunga ko'ra, maqolamizning asosiy maqsadlaridan biri "O'zbekneftgaz" AJ korxonasida inson resurslarini boshqarish jarayonlarini tahlil qilish va nazariyalar asosida ko'rib chiqishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'rganilganlik darajasi etarli bo'lmagan va natijada zamonaviy bozor iqtisodiyoti muhitida inson resurslarini boshqarish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini etarli darajada hisobga olmaslik korxonalarining kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari to'liq qondirilmasligiga olib keladi va bu holat ularning ish samaradorligini pasaytiradi.

Inson resurslarini boshqarish jarayonlarini takomillashtirish muammolari uzoq xorij olimlaridan Barni J.B., Bekker B[1], Gerxart B., Xuselid M.A., Boxall R[2], Datta D.K., Gutri J.P., Rayt P.M[3], Din J.V., Snell S. kabi



taniqli xorijiy iqtisodchilarning asarlarida yoritilgan. T.U. Bazarov, V.S. Nennenova, O. Kibanov, U.V. Kuznesov va boshqa olimlarning asarlari, asosan, inson konsepsiyalarining individual tushunchalari, tamoyillari va yo'nalishlarining mohiyatini o'rganishga bag'ishlangan. "HR" va menejment sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan o'zbek olimlaridan G.Q. Abduraxmonova[4], Q.X. Abduraxmonov[5], N.K. Yo'ldoshev, G.G. Nazarova, A.B. Xayitov[6] va boshqa ko'plab olimlarni misol qilib aytishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada statistik ma'lumotlarni qiyoslash, solishtirma tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda neft va gaz sanoati milliy qudrat ramziga allaqachon aylangan. Neft va gaz sanoati iqtisodiy barqarorlik va milliy rivojlanish bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli O'zbekistonda strategik ahamiyatga ega soha hisoblanadi. "O'zbekneftgaz" AJ (keyingi o'rinlarda - Kompaniya deb ataladi) neft va gazni qazib olish hamda qayta ishlash sohasida respublikamizning eng yirik davlat kompaniyasi hisoblanadi. Kompaniya va uning shu'ba tashkilotlari geologo-qidiruv, burg'ulash va uglevodorodlarni qazib olish, ularni tashish va saqlash, shuningdek, neft mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish kabi barcha turdagi neft-gaz sanoati ishlab chiqarish sikli ishlarini amalga oshiradilar. "O'zbekneftgaz" AJ 60 dan ortiq tashkilotlarni, shu bilan birga, 8 ta qo'shma korxonalarni birlashtirgan zamonaviy vertikal integrasiyalashgan kompaniya hisoblanadi. 2022-yilda Kompaniya o'zining

30 yilligini nishonladi. Kompaniya 1992-yil 3-mayda O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining "O'zbekiston neft va gaz sanoati davlat konserni "O'zbekneftgaz"ni tashkil etish" to'g'risidagi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan [7]. O'sha yilning dekabr oyida kompaniya "O'zbekneftgaz" neft va gaz sanoati Milliy korporatsiyasiga aylantirildi [8]. 1998-yil dekabr oyida Milliy korporatsiya "O'zbekneftgaz" Milliy xolding kompaniyasiga [9], 2017-yil iyul oyida esa aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi [10]. 2022-yilda u korporativ boshqaruvni takomillashtirish, ijtimoiy va ekologik javobgarlikni ta'minlash borasida taraqqiyotga erishdi.

Bugungi kunda "O'zbekneftgaz" AJ 50 dan ortiq korxonalarni, shu jumladan, 13 ta qo'shma korxona, uglevodorodlarni qazib olish bo'yicha 10 ta yirik korxonalarni, shuningdek, bir qator nazorat ostida bo'lgan korxonalarni birlashtirgan zamonaviy ko'p pog'onali vertikal integrallashgan kompaniya hisoblanadi.

2022-yil yakunlari bo'yicha mamlakat yalpi ichki mahsulotiga qo'shgan hissasi 5,3 foizni tashkil etdi, Davlat byudjetiga tushgan tushumlarning umumiy hajmining 3,4 foizi "O'zbekneftgaz" AJ korxonalari hissasiga to'g'ri keladi. Kompaniya mamlakatning eng yirik ish beruvchisi bo'lib, jami 35,5 ming xodim ishlaydi. Kompaniya barqaror rivojlanishga erishishining muhim jihatidan biri bu tabiiy resurslardan rasional foydalanish deb hisoblaydi. 2021-yilda kompaniya ishlab chiqarish faoliyati davomida 35,4 mln. litr suvni ishlatgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 28,6 mln. litrgacha qisqardi. Kelgusida suv resurslaridan foydalanishni qisqartirishga yo'naltirilgan innovasion usullarni amalga oshirishni davom ettirish rejalashtirilmoqda.

"O'zbekneftgaz" AJ o'zining sheriklari hisoblanmish konsalting kompaniyalari bilan biznes jarayonlarni takomillashtirishni va korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirishni davom ettirmoqda. Ishlab chiqarish faoliyatida PDCA ("rejalashtirish-faoliyat-tekshirish-to'g'rilash") sikliga asoslangan yondashuv kiritilgan bo'lib, u ishlab chiqarish jarayonlarining yuqori ishonchlilikini ta'minlashga imkon beradi.

"O'zbekneftgaz" AJ korporativ strategiyasining muhim komponenti eng qimmatli aktiv inson kapitaliga investisiyalar hisoblanadi. Kompaniya xodimlarining tashabbuskorligi va yuqori professionalligi uning doimiy o'sish va rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Jamoa o'zining maksimal salohiyatiga erishishi va katta foyda keltirishi uchun kompaniya ularning rivojlanishiga va malakasini oshirishga investisiya kiritadi. 2021-yilda o'quv dasturi va malaka oshirish bo'yicha 9 016 xodim jalb qilingan bo'lsa, 2022-yilda esa 9 195 kishini tashkil etdi. Xodimlariga g'amxo'rlik qilgan holda kompaniya kuchli, birdam va motivatsiyalangan jamoani yaratadi.

"O'zbekneftgaz" AJ kadrlar siyosati kadrlar xilma-xilligini ma'qullaydi va maksimal darajada mahalliy aholini jalb qilishga intiladi. Mintaqalarda joylashgan korxona rahbarlarining 100 foizi mahalliy aholidan ekanligi kompaniyaning faxri hisoblanadi.

"O'zbekneftgaz" AJda lavozimidan qat'iy nazar barcha xodimlar amal qilishi majbur bo'lgan xulq-atvor qoidalari belgilangan korporativ etikasi Kodeksi mavjud. 2022-yilda kompaniyada biror marta ham etika qoidalariga rioya qilinmagan holat kuzatilmagan.

Tashkilot strategiyasi tashkilotning umumiy missiyasi, siyosati va umumiy strategik maqsadlarga erishishga xizmat qilishi lozim bo'lgan raqobat tadbirlari o'rtasida bevosita o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi. Ushbu tushunchalar nisbati 1-jadvalda keltirilgan.



1-jadval. “Missiya”, “strategiya”, “siyosat” va “faoliyat yo’nalishi” tushunchalari o’rtasidagi munosabat [11].

Tushuncha	Ta’rif	Misol
Missiya	Tashkilot mavjudligining sababi, uning asosiy qadriyatlari va ideallari	Yuqori sifatli mahsulot va xizmatlar taqdim etish, jahon standartlariga rioya qilish
Strategiya	Tashkilotning uzoq muddatli maqsadlari va konseptual yondashuvlari	Personalni boshqarish strategiyasi. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish strategiyasi. Narx strategiyasi. Sifatni boshqarish strategiyasi
Siyosat	Strategiyaning asosiy tarkibiy qismlariga batafsilroq yondashuv, biznes yuritishning eng muhim tamoyillari va qoidalari	Kadrlar siyosati. Yangi loyihalarni moliyalashtirish siyosati. Marketing siyosati
Faoliyat yo’nalishi	Tashkilot siyosati va strategiyasini amalga oshirishga yo’naltirilgan muayyan qadamlar va harakatlar	Personal tanlash va o’qitish dasturlari, xizmatlar reklamasini tashkil qilish

Kompaniya missiyasi – iste’molchilarga yuqori sifatli yoqilg’i-energetika resurslarini barqaror ta’minlashga asoslangan samarali tijorat kompaniyasi bo’lish.

“O’zbekneftgaz” AJ strategik maqsadlari quyidagilardan iborat:

1) qayta shakllantirish va texnologik modernizasiyaning barcha bosqichlarida muvozanatlashgan va barqaror faoliyatni ta’minlovchi, kelgusida iqtisodiy o’sishni nazarda tutgan, mamlakat energetik xavfsizligini mustahkamlash va aholi yashash sifatini oshirishni ta’minlovchi O’zbekiston Respublikasi yoqilg’i – energetika tarmog’ini dinamik rivojlantirish;

2) aholining yoqilg’i-energetika tarmog’i mahsulotlariga o’sib borayotgan ehtiyojlarini raqobatbardosh va qulay narxlarda qondirish, yoqilg’i-energetika sanoati korxonalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilishga investisiyalar rentabelligini ta’minlash, energiya resurslarini ishlab chiqarish va qayta ishlashning yuqori samarali texnologiyalari asosida yangi quvvatlarni qurish, gaz ta’minotining barcha bosqichlarida elektr energiyasi va tabiiy gazni hisobga olish va nazorat qilish tizimini takomillashtirish va avtomatlashtirish, qayta tiklanadigan energiyadan foydalanishni rivojlantirish bilan yoqilg’i-energetika resurslarini diversifikatsiya qilish, tegishli geologiya-texnika tadbirlarini amalga oshirish (uglevodorodlar zaxiralarini ko’paytirishga qaratilgan va ularning ishlab chiqarilishining o’sishi).

“O’zbekneftgaz” AJ kadrlar siyosati prinsiplari quyidagilardan iborat:

- inson kapitalining asosiy roli;
- xodimlarni rivojlantirishga e’tibor;
- xodimlarni sifatli boshqarish;
- O’zbekiston Respublikasining ilg’or o’quv yurtlari bilan strategik sheriklik;
- inson resurslarini strategik rejalashtirish;
- xodimning jinsidan qat’iy nazar raqobatbardosh va teng ish haqi;
- mahalliy va xorijiy investorlar uchun kompaniyaning qo’shimcha qiymati va investision jozibadorligini yaratish.

Kompaniyaning inson resurslarini tanlash, moslashtirish va rivojlantirish, shu jumladan, ularni o’qitish, samaradorlikni boshqarish, korporativ madaniyatni rivojlantirish va rag’batlantirishni boshqarish kabi kadrlar masalalari IR (inson resurslari) departamenti tomonidan boshqariladi. “O’zbekneftgaz” AJ jinsi, yoshi, kelib chiqishi va millatidan qat’iy nazar barcha xodimlarning martaba o’sishi uchun teng sharoitlar yaratadi, yoshlarni rivojlantirish dasturlarini amalga oshiradi, munosib ish haqi darajasini ta’minlaydi, xodimlarning sog’lom turmush tarzini olib borishi uchun sharoit yaratadi. Kompaniyaning kadrlar siyosati Osiyo taraqqiyot banki mutaxassis-lari bilan birgalikda ishlab chiqilgan. 2021-yilda samaradorlikning asosiy ko’rsatkichlar (SAK) tizimi va yangi rekrutning siyosati, shuningdek, kompaniyaning barcha bo’linmalari uchun strategik ijtimoiy ko’rsatkichlar shakllantirilgan. Kompaniyaning kadrlar siyosati korporativ qadriyatlarga ega bo’lgan va korporativ strategiyaning



maqsad va vazifalari doirasida joriy va kelajakdagi muammolarni samarali hal qila oladigan iste'dodli va g'ayratli xodimlarni jalb qilish va rivojlantirishga qaratilgan. Xodimlarni boshqarish sohasida axborot texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshirish va xodimlarni boshqarish funksiyalari xarajatlarini kamaytirishning muhim omilidir. 2022-yilda axborot kompyuter texnologiyalari departamenti hamda raqamlashtirish va avtomatlashtirish bo'yicha loyiha idorasi kadrlar hisobini avtomatlashtirishga qaratilgan Personal UNG loyihasini amalga oshirishni yakunladi (tizimga 10 mingdan ortiq xodimlar hisobga olindi). Kadrlar xavfini boshqarish maqsadida kadrlar tayyorlash va rivojlantirish bo'limi quyidagi amaliyotlarni amalga oshiradi:

- kadrlar siyosati va kadrlar almashinuvini qo'llab-quvvatlash;
- mehnat intizomi buzilishini nazorat va monitoring qilish;
- talab bo'yicha tegishli kadrlarni qo'llab-quvvatlash;
- xodimlarning malakasini oshirish;
- sifatli rekrutingni amalga oshirish.

Kompaniya xodimlar motivasiyasi va jamoadagi psixologik munosabatga katta e'tibor beradi. Xodimlar, bo'limlar, korporativ madaniyat, shuningdek, ishlab chiqarishning turli tarkibiy qismlari (tashkiliy va mehnat sharoitlari, motivasiya tizimi) o'rtasidagi vertikal va gorizontal munosabatlar ijtimoiy muhitga ta'sir qiluvchi asosiy omillardir. 2021-yilda "O'zbekneftgaz" AJ ijtimoiy barqarorlikning ichki reytingini shakllantirish maqsadida xodimlarning so'rovlari orqali yillik ma'lumotlarni to'plash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni boshladi.

Kadrlar masalalarini strategik boshqarish bo'yicha kompaniyaning asosiy yutuqlari:

1) "O'zbekneftgaz" AJning komplaens – avtomatlashtirilgan nazorat dasturi yaratildi. Xodimlarning kundalik hisoboti shakllari, reja va topshiriqlarni kiritish, oylik jadval, o'quv natijalari, davomat va SAK tizimining funksiyalarini kiritish yo'li bilan umumiy axborotni avtomatik shakllantirish takomillashtirildi:

2) kadrlar malakasini uzluksiz oshirish tizimi joriy qilindi;

3) xorijiy hamkorlar, shu jumladan, Baker Hughes GE Company bilan o'zaro tashkillashtirilgan seminarda qatnashish uchun nomzodlar ro'yxati shakllantirildi va ularning ishtiroki ta'minlandi;

4) oliy ta'lim muassasalarining nufuzli tarmoq yo'nalishlari talabalari bilan shartnomalar tuzish uchun kvotalar tasdiqlandi. Toshkent davlat texnika universiteti bilan hamkorlik qilish bo'yicha memorandum imzolandi.

2022-yilning dekabr holatiga ko'ra kompaniyada xodimlar soni

35 551 kishini tashkil etadi, ya'ni 2021-yilga qaraganda 6,1 % ga kamaygan

(2-jadval). "O'zbekneftgaz" AJ xodimlari sonining kamayishi va

2021–2022-yillarda kadrlar almashinuvining nisbatan yuqori darajasi kompaniyaning tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish va asosiy bo'lmagan aktivlarni o'tkazish bilan bog'liq.

2-jadval. "O'zbekneftgaz" AJ yoshi bo'yicha xodimlar tarkibi.

	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Jami, shundan:	40 099	37 706	35 551
30 yoshgacha	8 590	7 982	6 618
30 dan 50 yoshgacha	24 467	22 931	22 332
50 yoshdan katta	7 042	6 703	6 601
Kadrlar qo'nimsizligi	5,0%	14,0%	13,6%

Xodimlarning asosiy qismi 30 yoshdan 50 yoshgacha bo'lganlar hisoblanadi, bu umumiy xodimlarning o'rtacha 62,8 foizi bo'lib, yosh va tajribali kadrlarning optimal muvozanati hisoblanadi. Ikkinchi o'rinda 30 yoshgacha bo'lgan xodimlar ulushi o'rtacha 18,6 foizni tashkil etadi. 50 yoshdan kattalarning ulushi umumiy xodimlarning o'rtacha 18 foizni tashkil etadi. Xodimlarning o'rtacha yoshi 38 yosh. Kompaniyada xodimlarni tanlash va yollash siyosati xodimlarni yoshga qarab tanlash mezonlari asosida amalga oshirilmaydi. Chet elning ba'zi manbalarida keltirilgan tajriba natijalariga ko'ra, tashkilot, korxona va firmalarga ko'proq ayollar jamoasi sadoqat bilan xizmat qilishar ekan, erkaklar esa qo'nimsizroq harakatda bo'lishligini keltirib o'tishgan. "O'zbekneftgaz" AJda ayollar va erkaklar nisbati har xil bo'lib, erkaklar ulushi ayollarga nisbatan ancha ko'p ekanligini ko'rish mumkin (3-jadval)

3-jadval. "O'zbekneftgaz" AJ jinsi bo'yicha xodimlar tarkibi.

	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Jami, shundan:	40 099	37 706	35 551
erkaklar	35 945	33 635	31 623
ayollar	4 154	4 071	3 928



Kompaniyada erkaklar o'rtacha umumiy xodimlar soniga nisbatan 88,9 foizni va ayollar esa 11 foizni tashkil etadi. Buning asosiy sababi shuki, kompaniyada amalga oshiriladigan vazifalar va tez-tez xizmat safarlariga borilishiga to'g'ri kelishidir.

Kompaniyada rahbarlik lavozimida ishlovchilar 5,84 foizni (2 077 ta), mutaxassislar 15,06 foizni (5 354 ta), texnik mutaxassislar 5,03 foizni (1 789 ta), xizmat ko'rsatish xodimi 14,1 foizni (5 012 ta) va ishlab chiqarish xodimi 59,97 foizni (21 319 ta) tashkil etadi. Ishlab chiqarish xodimlari (59,97%) va mutaxassislar (15,06%) eng ko'p tarqalgan xodimlar toifasi hisoblanadi.

"O'zbekneftgaz" AJ xodimlarni jinsi bo'yicha emas, aksincha professional tajriba, malaka va shaxsiy yutuqlari asosida tanlaydi. Shtatdagi ayollar ulushining kamligi neft va gaz sanoatining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq, ya'ni bu erda ishchi kuchining katta qismi xavfli va og'ir mehnat sharoitlari tufayli erkaklarga to'g'ri keladi, yuqori jismoniy faollik va konlarda ishlashni o'z ichiga oladi. Ish haqi miqdori ham xodimning jinsiga bog'liq emas.

Kompaniyadagi mehnat munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi normalariga va boshqa mahalliy normativ hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi. "O'zbekneftgaz" AJ mehnat huquqlariga rioya etilishini, mehnat qonunchiligida nazarda tutilgan imtiyozlar va kafolatlarni xodimlarga berilishi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Har bir xodim O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq ishga qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 102-moddasi talablariga muvofiq kompaniya texnologiya, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, shtat o'zgarishiga olib kelgan ish hajmining qisqarishi yoki ish tarkibining o'zgarishi munosabati bilan xodimlarni mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risida kamida ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantiradi. Kasaba uyushma qo'mitasi yig'ilishida ish beruvchining tashabbusi bilan ish beruvchining xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi taqdimnomasini ko'rib chiqayotganda xodim shaxsan ishtirok etishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksiga muvofiq "O'zbekneftgaz" AJning har bir xodimiga bola parvarishi bo'yicha bola ikki yoshga etguncha ta'til beriladi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu davr uchun bola puli to'lanadi.

Kompaniya va uning sho'ba korxonalari xodimlari to'g'ridan-to'g'ri kompaniya va kasaba uyushmasi tomonidan to'lanadigan keng ijtimoiy paketdan foydalanishlari mumkin. "O'zbekneftgaz" AJ xodimlarining ijtimoiy paketi tarkibi quyidagilardan iborat:

1. Tibbiy xizmat. Kompaniya o'z xodimlariga quyidagi tibbiy xizmat turlarini ta'minlaydi:

- bir yilda bir marta tibbiy ko'rikdan o'tish;
- "O'zbekneftgaz" AJ pensionerlariga va xodimlar oila a'zolariga tibbiy xizmat ko'rsatish;
- mehnat faoliyati davomida nogiron bo'lib qolgan hamda turli jarohatlar olgan xodimlarga dori-darmon va tibbiy jihozlar (O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan) pulini to'lash.

2022-yilda 1 001 xodim imtiyoz asosida "O'zbekneftgaz" AJga tegishli UNG Medlinening ko'p tarmoqli kasalxonasida davolanib chiqdi. Shu bilan birga, 2 393 ta ayol xodim onkoskrining ko'rigidan o'tdi.

2. Sanatoriya-kurortli davolanish. 674 ta xodimning arizasiga ko'ra, O'zbekistonda joylashgan "Zomin", "Oqtosh", "Chinobod", "Turon", "Chortoq", "Chimyon", "Bo'ston", "Umid Gulshani" sanatoriylariga imtiyozli putyovkalar taqdim etildi hamda 314 ta xodim kasaba uyushmasi byudjeti (896 191,8 so'm) va 360 ta xodim esa ijtimoiy sug'urta byudjeti (1 083 482,0 so'm) hisobidan dam oldi va davolandi. Bundan tashqari, 1 173 ta xodim imtiyoz asosida oila a'zolari bilan OOO "UNG TOSHKENT DENGIZI OROMGOHI"da dam oldi.

3. Bolalarga yangi yil sovg'alari. Kasaba uyushmasi komiteti kompaniya ma'muriyati bilan birga xodimlarining 14 yoshgacha bo'lgan farzandlariga yangi yil sovg'alari va pul mukofotlari beradi. Pul mukofotlari kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

4. Bola tug'ilganda beriladigan moddiy yordam. Bola tug'ilganda xodimlarga eng kam ish haqining 1,2 barobarida bir martalik moddiy yordam beriladi. 2022-yilda bola tug'ilganda beriladigan moddiy yordam 1 mlrd 411 mln so'mni tashkil etdi, ya'ni bu 2021-yilga nisbatan 1,36 marta ko'p edi.

5. Turmush qurganda beriladigan moddiy yordam. Kompaniya xodimlari va ularning farzandlari turmush qurganda eng kam ish haqining 10 barobarida bir martalik moddiy yordam beriladi. 2022-yilda turmush qurganda beriladigan moddiy yordam 6 337 300 000 so'mni (2021-yilda 6 277 326 900 so'm) tashkil etdi.

6. Bolalarning yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarida dam olishi.

2022-yilda xodimlarning bolalarini bolalar sog'lomlashtirish oromgohlariga dam olishga yuborishni tashkil-lashtirish bo'yicha "O'zbekneftgaz" AJ Boshqarmasi va kasaba uyushmasi komiteti Prezidiumi qo'shma qarori qabul qilindi. Shu yili dam olishga 10 203 bola yuborilgan edi, shulardan 398 tasi kam ta'minlangan, etim, ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogiron va bolalar uyi tarbiyalanuvchilari hamda 271 nafari Qoraqalpog'iston Respublikasining Orolbo'yi ekologik noqulay zonalaridan edi.

7. Maktabgacha yoshidagi bolasi bor xodimlarga yordam. Ikki yoshgacha bolasi bor ayollarga har uch soatda bolani ovqatlantirish uchun 30 daqiqalik va bir soatlik tanaffus beriladi. Bu tanaffus vaqti to'lanadigan ish vaqtiga kiritiladi.



Nogiron bolalari bo'lgan xodimlarga maktab formasi va o'quv qurollarini sotib olish uchun eng kam ish haqi miqdorida bir martalik moddiy yordam ko'rsatiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalari (6-7 yoshdagi) bo'lgan ayollarga bolalarni maktabga tayyorlash uchun o'quv yili boshlanishidan oldin bir kun dam olish kuni beriladi.

8. Nafaqaga chiqqanda beriladigan to'lov. Nafaqaga chiqqanda xodimga har bir ishlagan yili uchun uning joriy oylik ish haqining 8% miqdorida bir martalik to'lov va 20 yoki undan ortiq ish stajiga ega bo'lgan xodimga har bir ishlagan yili uchun uning joriy oylik ish haqining 12% miqdorida bir martalik to'lov to'lanadi.

9. Moddiy ahvoli og'ir va og'ir kasalligi uchun xodimlarga moddiy yordam. Kompaniya kengashi va ishchilar kasaba uyushmasi ijtimoiy zaif guruhlar vakillariga qo'shimcha yordam ko'rsatish to'g'risida qo'shma qaror qabul qildi.

2022-yilda kompaniya xodimlari tarkibiga kirmaydigan jami 1 010 nafar kishi, jumladan, nogironlar, og'ir kasallik tufayli parvarishga muhtoj shaxslar hamda og'ir moddiy ahvolga tushib qolgan shaxslar yordam oldi. Ushbu maqsadlar uchun kompaniya mablag'laridan 667 206,3 so'm va kasaba uyushmasi byudjetidan 117 748,9 so'm sarflandi.

Korporativ boshqaruvning samarali tizimi "O'zbekneftgaz" AJning omadli uzoq muddatli rivojlanish asosidir. Kompaniya shaffof va yuqori etika standartlariga asoslangan, barcha tashqi qiziquvchilarning qiziqishlarini hisobga oluvchi va o'zining strategik maqsadlariga maksimal darajada erishishga imkon beradigan tizimni amalga oshiradi. Kompaniya muntazam ravishda faoliyatini eng yaxshi amaliy va xalqaro standartlarga mos rivojlantirib boradi. 2022-yilda o'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimi tahlil natijalariga ko'ra, "O'zbekneftgaz" AJ yuqori baholandi, bu esa uning samarali va ishonchli boshqaruv modelini tanlaganligidan dalolat beradi.

"O'zbekneftgaz" AJ o'z xodimlarini qadrlaydi va respublikada eng yaxshi ish beruvchilar qatoriga kirishga intiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun u doimiy ravishda mehnat sharoitlarini yaxshilaydi, xodimlarni rag'batlantiradi va teng martabaga o'sish imkoniyatlarini ta'minlaydi. Kompaniya mehnat resurslari har qanday tashkilot samaradorligining asosiy omili ekanligini tan oladi. Shu sababli kompaniya o'zining kadrlar siyosatida professionallikni, samaradorlik va mas'uliyatni, jamoaviy mehnatni afzal ko'radi hamda yuqori korporativ qadriyatlarga amal qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy global raqobat va FTT tezlashgan sharoitlarda tashkilotlar raqobatchilarning doimiy bosimi ostida bo'lib, ularni o'z mahsulotlarini yoki xizmatlarini yaxshilashga, mahsulot turlarini kengaytirishga, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishga majbur qilmoqda. Shu sababli zamonaviy kompaniyalar doimiy ravishda o'zgarib turadi, kompaniyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularni amalga oshirish tezligiga bog'liq. Innovation boshqaruvni o'zlashtirishning kaliti mavjud inson resurslaridan samarali foydalanishdan iborat va buni boshqarish tashkilotning umumiy rivojlanish strategiyasining bir qismi bo'lgan taqdir-dagina amalga oshiriladi. Amalda kompaniyalar kamdan-kam hollarda har qanday variantga e'tibor berishadi. Ko'pincha umumiy strategiya – bu har birining ahamiyati va kutilgan natijasiga qarab turli xil variantlarining kombinatsiyasini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Беккер Б., Герхарт Б. Инсон ресурсларини бошқаришнинг ташкilot фаолиятига таъсири: тараққиёт ва истиқболлар // Бошқарув академияси журнали. – 1996. – №39.
2. Бохалл П. HRM бўйича стратегик мунозара ва фирманинг ресурсларга асосланган кўриниши. // HRM. – 59 б.
3. Райт П.М., Снелл С.А. Стратегик ресурсларни бошқаришда мувофиқлик ва мослашувчанликни ўрганиш учун бирлаштирувчи асос. // Бошварув академияси шарҳи. 1998. – №23(4).
4. Абдурахмонова Г.Қ. Инсон ресурсларини бошқариш. Дарслик. Тошкент, 2021.
5. Абдурахмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р., Зокирова Н.К. Персонални бошқариш. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 2019.
6. Хайитов А.Б. Инсон ресурсларини бошқариш. Дарслик. – Т.: ТДИУ, 2019.
7. "Ўзбекистон нефть ва газ саноати давлат концернини ташкил этиш тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 3 майдаги ПФ-393-сон Фармони ўз кучини йўқотган. <https://lex.uz/docs/240598>
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 23.12.1992 йил ПФ-518-сон "Ўзбекистон нефть ва газ саноати давлат концернини нефть ва газ саноати ("Ўзбекнефтгаз") миллий корпорациясига айлантириш тўғрисида"ги Фармони. <https://lex.uz/docs/240598>
9. "Ўзбекнефтгаз" нефть ва газ саноати Миллий корпорациясини "Ўзбекнефтгаз" Миллий холдинг компаниясига айлантириш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Фармони, 1998 йил 11 декабрдаги ПФ-2154-сон.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 30.06.2017 йилдаги "Нефть-газ тармоғини бошқариш тизимини такомиллаштиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-3107-сон қарори. lex.uz/docs/3414481
11. Абдурахмонова Г.Қ. Инсон ресурсларини бошқариш. Дарслик. Тошкент, 2021.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

